

AHMAD YUGNAKIYNING “HIBAT-UL HAQOYIQ”
ASARIDAGI AXLOQIY QARASHLAR

Ziyovuddinova Fariza

Samarqand davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: G.Imomqulova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul Haqoyiq” asaridagi odob-axloqqa oid qarashlari tahlil qilinadi. Asarning axloqiy-didaktik yo‘nalishi, undagi odob, halollik, kamtarlik, ilmu fan, sabr-toqat kabi insoniy fazilatlar targ‘ibi bayon etiladi. Shuningdek, bu g‘oyalarning badiiy ifodasi hamda zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi dolzarbligi misollar va baytlar asosida yoritiladi. Asar bugungi kun ma‘naviy tarbiya uchun muhim manba sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: Baxillik, bilimsizlik, odob axloq, to‘g‘rilik, saxiylik, ilm manfaati, kibr, harislik, yomonlik, halollik, hasislik, takabburlik.

Biz axloq muallimi nomi bilan mashhur bo‘lgan buyuk so‘z san‘atkori adib Ahmad Yugnakiyning Qur‘oni karim va Hadisi sharif ma‘nolari singdirilib islom dini axloqini targ‘ib qilish va komil insonni tarbiyalash maqsadi bilan yozilgan “Hibat-ul haqoyiq” asarini o‘rganar ekanmiz uning eng avvalo qayerda yashagani faoliyati yashagan davri undagi ma‘naviy - madaniy muhit ustoz haqida to‘xtalib o‘tamiz. Adib XII asr oxiri XIII asr birinchi yarmida yashab ijod qilgan. Ahmad Yugnakiyning hayoti, tarjimayi holi haqida juda oz ma‘lumotga egamiz va to‘liq ma‘lumot yozib qoldirilmagan. Ma‘lum bo‘ladiki “Hibat-ul haqoyiq” asarining ayrim nuqtalarida keltirib o‘tilgan. Adib Ahmad Yugnak degan so‘lim va bahovo joyda tug‘ilgan .

XII asrda yashab ijod qilgan mashhur tarixchi Abdulkarim as – Sam‘oniy Al – Ansob Nasabnoma kitobida yozadi: Yug‘anak – Samarqand qishloqlaridan. Abu Homid Ahmad ibn Abu Ahmad al - yug‘anakiy bu nisbat bilan mashhurdirlar. (1 : 4) Bu kishi Samarqand ahlidandir deb aytib o‘tganlar.

“Hibat-ul haqoyiq” asari (Haqiqatlar tuhfası) turkiy pandnoma adabiyotning noyob durdonasi koshg‘ariy tilida yozilgan “Qutadg‘u bilig”dan bir ikki asr keyin yaratilgan turkiy adabiyotning noyob durdonasi hisoblanadi. Asarda ulug‘larni hurmat qilish, ilm ma‘rifatning ulug‘lanishi odob axloq ma‘rifatning foydasi-yu jaholatning zarari, saxiylik, baxillik kabi turli masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib bugungi kunda unung roli va ahamiyati qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi va o‘sha paytdagi ijtimoiy muhit o‘sha davrdagi insonlarning hayoti dunyoqarashi ham aks etilgan Hibbat ul haqoyiq 14 bob 512 misradan iborat. Yana shuningdek arabiy va forsiy so‘zlarga boy va ilk bor uyg‘ur yozuvida bitilgan. Va shu paytgacha uning ko‘p

nusxalarda turli xil kishilar va olimlar tomonidan jumladan 1444 – yilda Samarqandda Zaynulobidin baxshi Istanbulda Abdurazzoq baxshi tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmalar e‘tiborli nusxalar hisoblanadi.

Hibat-ul Haqoyiq (haqiqatlar sovg‘asi) bu asarni adib o‘z davrining falsafiy qarashlari orqali talqin qilgan. Shunday ekan asarda eng birinchi olloh hamdi keltiriladi . Biz bilamizki bizning buyuk adiblarimiz eng avvalo asar yozilishidan avval olloh haqida qisqacha tilga olib keltirib o‘tishgan. Keyin esa payg‘ambarlar haqida yozishgan, albatta bu asarda ham keltirilgan. Ahmad Yugnakiy ulug‘ Dod Sipohsolorbek haqida asarning uchinchi bobi shunga bag‘ishlangan, va yozilish sababi bayon etilgan.

Dod Sipohsolorbek uchun bu kitob

Chiqartim ochunda oti qolsu(v) tep

Dod Sipohsolorbek kimligi haqida bahs munozaralar hali yakuniga yetmagan XII-XII-asrlar orasida Farg‘ona hokimi bo‘lgan degan fikrlar mavjud. Adib Ahmadning hukmdori deb qabul qilish kerak. U haqida juda ko‘p yaxshi gaplar yozgan ulug‘lab adolatli xalqqa mehribon saxovatli inson sifatida tariflagan .

Yuqorida keltirilgan bayt aynan shu haqida, ya’ni adib “Hibat-ul haqoyiq”ni tugatib hukmdori Dod Sipohsolorbekka taqdim etgan. Ahmad Yugnakiy hukdoriga atab yozdim kitobimni bu dunyoda nomi mangu qolsin deb ulug‘lab shunday deya ta’riflab aytib o‘tgan.

Ahmad Yugnakiyning fikricha foniyl dunyo zaxarli ilonga o‘xshaydi, u rohat ko‘rish uchun emas, balki azob chekish uchun yaratilgan, uning turli – tuman achchiq tomonlariga ko‘nikish, ularga sabr chidam bilan bardosh berish kerak, baxt rohat esa tushdir, xayol yoki qushning bir zumda uchib o‘tishidir. Demak, adib bunday falsafiy fikr va qarashlari bilan dunyoning o‘tkinchiligini ta’kidlab o‘tmoqda.

Qur’oni karim va Hadisi sharif ma’nolari singdirilib u islom dini axloqini tashviq qilish komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan shunga ko‘ra asar pand- nasihat usulida yozilgan.

Bezadim kitobi mavoiz masal`

Boqig‘li , o‘qug‘li osig‘ olsu tep

Ko‘rgan o‘qiganlar manfaat olsin deb kitobimni turli xil maqol – matallar pand nasihatlar bilan bezadim. Bundan anglashiladiki, adib xalq maqollaridan ham samarali foydalanib o‘tgan. Birgina pand- nasihat emas balki maqol va matallar bilan ham bezagani ma’lum.

Jafo qildaching‘a yonut qil vafo ,

Arimas necha yuvsa qon birla qon (74)

Ko‘rinib turibdiki, bu maqolida qonni qon bilan yuvib bo‘lmaydi deyilgan va bu bilan o‘zining badiiy maqsadini ifodalash uchun ishlatgan deyish mumkin. Ya’ni bu bilan adib o‘sha paytdagi ijtimoiy siyosiy muhit ta’siri ostida yuz berayotgan voqea

va o'zgarishlarga aytiladi.

Birinchi bo'lim ilm manfaati haqida bu haqida quyidagi baytlarda keltirib o'tiladi.

Bilik bilti bulti eran belgulik

Biliksiz tirikla yituk ko'rgulik

Ma'lumki bilimli kishilarning nomi mashhurdir va abadiy u o'chmaydi, lekin bilimsiz kishilar esa o'zi hayot bo'lsa ham oti o'likdir bu unga ko'rgulikdir. Bundan boshqa yana ko'plab pand - nasihatlar o'z qimmatini yo'qotmay kelgan bu teran o'gitlar ham dunyo turguncha o'z ta'sir kuchini yo'qotmasligi va xuddi bu so'zlar bugungi kunda aytilayotganday. Yana shu kabi o'gitlardan aytib o'tish lozim keyingi bo'limlarda ham mana shunday so'zlar bilan boyitilgan.

Adib bilim manfaati haqida shunday deydi bilimli kishiga o'zni yaqin tut zero bilimli kishi oltindek har yerda ustun bilimsiz misoli qurigan o'tin, bunda bilimni oltinga bilimsizni esa qurigan o'tinga o'xshatyapti. Doim o'ylab so'zlaganning so'zi haqiqat so'zni ehtiyot bo'lib so'zlash kerak. Tiyiqsiz til boshga ofat keltirishi haqida falsafiy fikrlari bayon qilingan bo'lib, bu til suyaksiz boshga balo keltiradi, shu birgina so'z orqali ham ko'p boshlar ketdi, bu bo'sh tilning ishi o'q yarasi bitar til yarasi bitmas. Haqiqatdan ham bu so'zlar orqali adib tilning ya'ni birgina so'zning qudrati haqida so'zlagan, bu haqida ko'plab fikrlar mavjud birgina yaral degan so'z orqali butun olam yaralgani haqida ham ma'lumotlar bor.

Ahmad Yugnakiy saxovat va baxillik, kibrlilik harislikning zarari to'g'risida qarashlari, biz bilamizki baxillik azaldan qoralangan va bu hozirgacha ham shunday baxil insonlar avvaldan bo'lgan oramizda o'sha davrda ham baxilni ishi harom mol dunyo yig'ish ochko'zlikdir. Natijada la'nat qarg'ish oladi el nafratiga qoladi, saxiy inson borini ulashadi. Kibrlilik harislik esa eng yomon illatdir manman takabbur kimsalar o'zini katta tutib odamlarni mensimay maqtanchoqlik qilib boshqalarni kamsitib, o'zini ko'z ko'z qilish islomda takabburlik yomon sifat bo'lib qoralanadi. Demak Ahmad yugnakiy eng qimmatli ma'lumotlarni bizga meros qoldirib ketgan. Adib to'g'ma ko'r bo'lgan. Lekin qalb ko'zi yorug' bo'lgan, "Tug'a ko'rmas edi" deb adibning ko'zi bu haqida asarda ham keltirib o'tilgan.

Xulosa: Hibat-ul haqoyiq turkiy pandnoma undagi hikmatlar juda ham rang barang keng yoritilgan. Adib hikmatlarini o'qib bir narsaga amin bo'lamiz: Hayotda kundalik turmushdagi hayotiy tajribasi orqali shunchalik chiroyli so'zlar orqali yozilgani bularning barchasi haqiqat, bu insoning botiniy ya'ni, ichki insoniy fazilatlar va qusurlari, shunday insonlar yashab o'tganligi, ayniqsa bugungi kunda ham eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Biz har birimiz bundan xulosa chiqarishimiz, ibrat olishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergash Ochilovning “Hibat ul haqoyiq” asar tahlilnomasi. Toshkent, yil
2. Natan Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi, o‘qituvchi nashriyot .1965
3. [www. ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
4. [www. kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)